

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TASHQI SAVDO XARAJATLARINI KAMAYTIRISH OMILI SIFATIDA.

Teshaboyev Jasurbek Erkinovich

“O‘zkiyosanoat” AJ, Investitsiya

loyihalarini monitoring qilish bo‘limi boshlig‘i,

j.teshaboev1984@gmail.com

+99894-428-98-99

Kirish

Global iqtisodiyotning tobora raqamlashib borayotgan sharoitda tashqi savdo raqamli texnologiyalardan foydalanish milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi asosiy faktorlardan biriga aylanmoqda. Xususan, elektron bojxona platformalari, blokcheyn, sun‘iy intellekt va “Big data” kabi texnologiyalardan foydalanish an‘anaviy jarayonlarni takomillashtirib, bu boradagi xarajatlarni sezilarli kamaytirmoqda. Bu kabi texnologiyalarni joriy etgan mamlakatlarda tashqi savdo operatsiyalariga ishlov berish vaqtini **40 foizgacha** qisqartirganligi bu boradagi erishiladigan iqtisodiy samarani ko‘rsatib, masalaning dolzarbligini belgilaydi (OECD, 2021).

Asosiy qism

Tashqi savdo operatsiyalarida tranzaksion xarajatlar hajmi tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, logistika va zaxiralarni boshqarish kabi funksiyalarni hajmidan kelib chiqib shakllanadi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar mazkur funksiyalarni yuqori darajada avtomatlashtirish orqali xarajatlarni qisqartirmoqda.

Buni Singapurda “TradeNet” elektron bojxona platformasi yordamida bojxona deklaratsiyalari qayta ishlash darajasi 99 foizga yetkazilgani va yuklarni qayta ishlash vaqti 10 daqiqagacha kamaytirilganligi isbotlaydi (World Bank, 2020). Bu natija jarayonlarni tezlashtirish bilan birga ish haqqi va ma‘muriy xarajatlarni ham qisqartirishi bilan muhim deyishimiz mumkin.

Shuningdek, ma‘lumotlarning shaffofligi va xavfsizligini ta‘minlovchi Blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish xam import jarayonlaridagi xarajatlarni qisqartirishda muhim sanaladi. Jumladan, Niderlandiyaning Rotterdam portida bu texnologiyadan foydalanish yuklarni qayta ishlash vaqtini 25 foizga qisqartib, firibgarlik xatarlarini kamaytirdi (Port of Rotterdam, 2022).

Raqamli texnologiyalarni tashqi savdo jarayonlariga jadal joriy etayotgan mamlakatlarda sezilarli iqtisodiy samaraga erishilayotgani kuzatilmoqda.

Xususan, Estoniyada “e-Customs” tizimi yordamida 99 foiz bojxona deklaratsiyalarining avtomatlashtirilganligi mamlakat YAIMning 2 foiziga teng bo‘lgan ma‘muriy xarajatlarni qisqartirish imkonini berdi.

Bundan tashqari, Singapurda raqamli texnologiyalarni tashqi savdo jarayonlariga samarali joriy etilishi mamlakat YAIMning 8 foizigacha bo'lgan logistika xarajatlarini kamaytirdi (World Bank, 2020).

Mazkur amaliy misollar raqamli texnologiyalardan foydalanish nafaqat jarayonlarni tezlashtiradi, balki xarajatlarni sezilarli qisqartirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shunga qaramasdan, bu borada quyidagi muammolar mavjudligini alohida ko'rsatib o'tish lozim:

- Raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi pastligi
- Tashqi savdo operatsiyalari ishtirokchilarining raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasi pastligi va imkoniyatlari cheklanganligi
- Raqamli ma'lumotlar xavfsizligi ta'minlash va ularni saqlash bilan bog'liq xatarlar.

Xulosa

Singapur, Niderlandiya va Estoniya kabi mamlakatlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish tajribasi tashqi savdo jarayonlari samaradorligini oshirishda asosiy faktorlardan biriga aylanganligini ko'rsatmoqda. Bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratmaslik iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytiradi. O'z navbatida, raqamli texnologiyalarni tashqi savdo operatsiyalariga joriy qilishdagi tizimli muammolar davlat tomonidan raqamli infrastrukturaga investitsiyalarni oshirish hamda tegishli o'qitish va malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish orqali hal etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **World Bank (2020):** *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies.*
2. **Estonian Tax and Customs Board (2023):** *e-Customs: Digital Transformation in Estonia.*
3. **Port of Rotterdam (2022):** *Blockchain in Logistics: Case Study.*
4. **McKinsey & Company (2021):** *The Digital Transformation of Supply Chains.*
5. **Korea Customs Service (2023):** *uTradeHub: Digital Platform for Trade.*
6. **OECD (2021):** *Digital Economy Outlook 2020.*
7. **Shapiro, C., & Varian, H. R. (1998):** *Information Rules: A Strategic Guide to the Network Economy.* Harvard Business Review Press.